KORXONA MOLIYAVIY HISOBOTI ICHKI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ismailov Timur
Qoraqalpoq Davlat universiteti
“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsent
https://doi.org/10.5281/zenodo.21239678

Annotatsiya. *Maqolada ichki audit jarayonida xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar moliyaviy holatini tahlil qilishning asosiy vazifalari yoritilgan bo‘lib, unda moliyaviy holat va uning hisobot davridagi o‘zgarishiga umumiy baho berish; aktivlar va ularning shakllanish manbalari, ularni oqilona joylashtirish va samarali foydalanish o‘rtasidagi muvofiqlikni o‘rganish; aylanma kapital miqdorining ko‘payishi (kamayishi)ni hamda joriy majburiyatlarga muvofiqligini aniqlash; moliyaviy-to‘lov va kredit intizomiga rioya qilish; korxona aktivlari tuzilmasi va uning majburiyatlarini o‘rganish; joriy aktivlarning, shu jumladan, debitorlik qarzi va zahiralarning aylanuvchanligini hisoblab chiqish; korxona balansi likvidliligini, moliyaviy barqarorlik va to‘lov qobiliyatining mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarini aniqlash; korxona daromadliligini baholash; korxona moliyaviy holatining barqarorligini uzoq va qisqa muddatli bashoratlash, ya’ni uning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishga oid masalalar o‘z aksini topgan.*

Tayanch so‘zlar: *Moliyaviy tahlil, ichki audit, tashqi audit, sof aktivlar rentabelligi, moliyaviy holat tahlili, moliyaviy holat auditi, moliyaviy barqarorlik tahlili, ma’lumotlar manbai, omilli tahlil, moliyaviy hisobot, aktivlar va ularning shakllanish manbalari.*

Абстрактный. *В статье освещаются основные задачи анализа финансового состояния хозяйствующих субъектов в процессе внутреннего аудита, включая предоставление общей оценки финансового состояния и его изменений за отчетный период; изучение соответствия активов и источников их формирования, их рационального размещения и эффективного использования; определение увеличения (уменьшения) объема оборотного капитала и его соответствия текущим обязательствам; соблюдение финансово-платежно-кредитной дисциплины; изучение структуры активов и обязательств предприятия; Расчет оборачиваемости текущих активов, включая дебиторскую задолженность и резервы; определение абсолютных и относительных*

Ключевые слова: *Финансовый анализ, внутренний аудит, внешний аудит, рентабельность чистых активов, анализ финансового состояния, аудит финансового состояния, анализ финансовой стабильности, источники данных, факторный анализ, финансовая отчетность, активы и источники их формирования.*

Abstract. *The article highlights the main tasks of analyzing the financial condition of business entities during the internal audit process, including providing an overall assessment of the financial condition and its changes during the reporting period; studying the correspondence between assets and the sources of their formation, their rational placement and effective use; determining the increase (decrease) in the amount of working capital and its compliance with current liabilities; observing financial and payment and credit discipline; studying the structure of the enterprise's assets and its liabilities; calculating the turnover of current assets, including accounts receivable and reserves; determining the absolute and relative indicators of the liquidity of the enterprise's balance*

sheet, financial stability and solvency; assessing the profitability of the enterprise; long-term and short-term forecasting of the stability of the enterprise's financial position, that is, issues related to the development of its financial strategy are reflected.

Key words: *Financial analysis, internal audit, external audit, return on net assets, financial condition analysis, financial condition audit, financial stability analysis, data source, factor analysis, financial reporting, assets and their sources of formation.*

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoning “«Yashil iqtisodiyot»ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish...” [1] muhim maqsadlardan birini hal etishda xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning moliyaviy hisobotini xalqaro standartlar asosida tahlil qilish va ichki auditdan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish jarayonida turli xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar, mulkdorlar, kreditorlar va qarz oluvchilar, ijarachilar va pudratchilar, ta’minotchilar, iste’molchilar, boshqaruv organlarining manfaatlari shakllandi. Aynan narxlarni erkinlashtirishning salbiy oqibatlari, iqtisodiyotni boshqarishda yuzaga kelgan qiyinchiliklar korxonalarning to‘lov qobiliyatini yanada murakkablashtirdi hamda xo‘jalik munosabatlarining aksariyat ishtirokchilari manfaatlariga putur yetkazdi. Natijada xo‘jalik sub’yektlarining moliyaviy holati va moliyaviy barqarorligini ta’minlash muammosi vujudga keladi.

Fikrimizcha, ichki audit tizimida korxona moliyaviy holatini boshqarish voqealarning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi, bu esa, ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalari va uni amalga oshirishga sarflanadigan xarajatlar o‘rtasida shakllanadigan salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan to‘g‘ri, samarali boshqaruv qarorlari qabul qilinishiga olib keladi.

Yuqorida qayd etilgan jihatlar korxonalar ichki audit tizimida uning moliyaviy holatini baholash bo‘yicha tahliliy amallarni bajarish, moliyaviy ahvolni yaxshilashning ichki rezervlarini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xo‘jalik sub’yektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish va ichki auditdan o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Buni korxonalarni iqtisodiy mustaqillikka ega bo‘lib, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalari uchun mulkdorlar, xodimlar, kreditorlar, investorlar va boshqa buyurtmachilar oldida to‘liq mas’uliyatga ega bo‘lishi bilan izohlash mumkin.

Korxonaning moliyaviy holati uning faoliyatini turli jihatlarini aks ettiruvchi mehnat unumdorligi, fond samaradorligi, tannarx, yalpi daromad, rentabellik ko‘rsatkichlarini o‘rganish, har bir ko‘rsatkichni hisoblab chiqish va umumiy ta’sirini baholash asosida aniqlanadi. Pirovardida korxonaning moliyaviy holati bozor iqtisodiyoti sharoitida uning ishonchliligi, barqarorligi va istiqbolli ekanligidan dalolat berishi kerak.

Fikrimizcha, ishonchlilik korxona ishining uzluksizligini va uning to‘lov majburiyatlarini qoplay olishini bildiradi. Iqtisodiy adabiyotlardagi turli yondashuvlarni tahlil qilgan holda ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. “Moliyaviy holat korxonaning muayyan vaqtdagi barqarorligi hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini uzluksiz yuritish va qarz majburiyatlarini ko‘rsatilgan muddatda qoplash uchun moliyaviy resurslar bilan ta’minlaganlik layoqatliligining aks ettirilishidir”.

Korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy va ishonchli baholashning eng maqbul usuli uni tahlil qilish, rivojlanish yo‘nalishini kuzatish, xo‘jalik faoliyatiga kompleks baho berish orqali to‘g‘ri boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, uning moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati o‘rtasidagi o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaruvchi jihatlarga aniqlik kiritishdan iboratdir.

Korxona moliyaviy faoliyatining normal kechishi, o‘z navbatida, qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi, mahsulot ishlab chiqarish uzluksizligi va korxonaning to‘lov qobiliyatiga, moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, moliyaviy holat tahlilini moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishdan boshlash kerak va bunday tahlil quyidagilarni o‘z ichiga oladi: balans aktivlari tarkibi va tuzilmasi tahlili; balans aktivlarining shakllanish manbalari tarkibi va tuzilmasi dinamikasi tahlili; korxona moliyaviy barqarorligi tahlili; balans likvidliligi tahlili; korxona to‘lovga qobiliyatining tahlili.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, boshqaruv xodimlari moliyaviy barqarorlikka faqat korxona doirasida ta’sir ko‘rsatishi, buni ichki barqarorlik deb, tashqi omillarga esa, korxona boshqaruvi faqat “moslashishi” mumkin, degan xulosaga kelish mumkin.

Korxona moliyaviy holatining ichki audit tizimini shakllantirish quyidagi uch elementdan tashkil topgan: audit muhiti, hisob tizimi va audit tartibi. Barcha hollarda yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarga erishish uchun ishlab chiqilgan qoidalar, uslublar, nizomlar va me’yoriy hujjatlarning mavjudligi ko‘zda tutiladi. Ichki audit tizimining barcha elementlari birgalikda korxonaning moliyaviy-xo‘jalik faoliyatidagi tavakkalchilik darajasini pasaytiradi va buxgalteriya hisobining yanada mukammal bo‘lishini ta’minlaydi.

Ichki auditning ajralmas qismi moliyaviy tahlildir. Tahlil natijalari sub’yekt boshqaruv apparati moliyaviy holatiga ta’sir ko‘rsatishi va uni istalgan tomonga o‘zgartirish layoqatiga ega. Shu bois, ichki auditning tashkiliy-uslubiy jihatlarini ishlab chiqish moliyaviy holatni tahlil qilish funksiyalari va imkoniyatlarini tadqiq qilishga asoslanishi, moliyaviy holatni tahlil qilish uslubini takomillashtirish esa, ichki nazorat ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Ichki audit tizimida korxonaning moliyaviy holati va to‘lov qobiliyatini tahlil qilish va baholash muhim ahamiyatga ega ya’ni, moliyaviy holat va to‘lov qobiliyati korxonalar tomonidan moliyaviy-xo‘jalik faoliyati, kelajakda strategik maqsadlarga erishish imkoniyatlarini baholash bo‘yicha harakat taktikasini ishlab chiqishda audit moliyaviy tahlilining turli amallaridan foydalanish hisobidan tekshiriladi.

Tahliliy amallar ichki auditorlarga kelgusida qo‘shimcha tekshiruvlarga zarurat vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni aniqlashga yordam beradi. Tahliliy amallardan foydalanish audit sifatini oshirish va uni o‘tkazish xarajatlarini qisqartirishga imkon beradi.

Ichki audit tahliliy amallarining samaradorligi tahlilning chuqurligi va har tomonlamaligi bilan uni o‘tkazishga ketgan sarf-xarajatlar nisbatida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan ma’lumotlarni to‘plash, saqlashning yangi usullaridan va texnik vositalaridan foydalanish zarur.

L.T.Gilyarovskaya, A.A.Vexarevalarning fikrlariga ko‘ra, “moliyaviy holat tahlilini uch bosqichda o‘tkazish maqsadga muvofiq: dastlabki bosqich – korxona buxgalteriya hisobotini tahlil qilishning maqsadga muvofiqligi haqida qaror qabul qilish; tayyorgarlik bosqichi – hisobot davrida ish sharoitlarini baholash zarurati tufayli balans bilan izoh xati orqali tanishish, faoliyat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi, mulkiy va moliyaviy holatning sifat o‘zgarishlari yo‘nalishlarini belgilash; asosiy bosqich – tahliliy amallarni bajarish, ya’ni korxonaning moliyaviy barqarorligiga baho beradigan va uni kompleks tavsiflaydigan, makon va zamonda qiyosiy foydalanish mumkin bo‘lgan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari tizimini hisoblab chiqish” [2, B.50].

Muallif moliyaviy holat tahlilini uchta bosqichda amalga oshirishni taklif etadi: 1) oldindan baholash va tahlilni rejalashtirish; 2) ichki nazorat tizimi va tahlil holatini baholash; 3) mustaqil auditorlik testlarini o‘tkazish, auditorlik xulosalarini tuzish [3, B.87].

Biz mualliflarning tahliliy ishlarini tashkiliy bosqichlarga bo‘lish lozimligi haqidagi fikrlariga qo‘shilgan holda, taklif etilayotgan bosqichlar tahliliy ishning tashqi auditorlar tomonidan olib borilishi uchun mos keladi, ushbu vaziyatda bizni korxonalarning moliyaviy holatini ichki foydalanuvchilar tomonidan ichki audit jarayonida tahlil qilishdagi tahliliy amallar qiziqtiradi. Shu munosabat bilan moliyaviy holat tahlilida quyidagi to‘rtta bosqichni ajratish taklif etiladi: 1) tahlil ob’yektlari va sub’yektlarini belgilash, tadqiqotning tashkiliy shakllarini tanlash va turli ijrochilar o‘rtasida majburiyatlarni taqsimlash; 2) tahliliy ish dasturini ishlab chiqish, uni axborot va uslubiy ta’minoti; 3) olingan natijalarni qayta ishlash, umumlashtirish va rasmiylashtirish; 4) moliyaviy barqarorlikni tahlil qilish asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha, moliyaviy holatni tahlil qilish uslublari koeffisiyentlarning to‘plamidan iborat. Fikrimizcha, moliyaviy holatni tahlil qilishda quyidagi nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir: 1) mustaqillik koeffisiyenti; 2) qarz va o‘zlik mablag‘lari nisbati koeffisiyenti; 3) o‘zlik kapitalidan foydalanish koeffisiyenti; 4) o‘zlik aylanma mablag‘lar bilan ta’minlanganlik koeffisiyenti; 5) korxona mulkidagi sof aktivlar koeffisiyenti.

Sof aktivlardan foydalanish samaradorligi ularning rentabelligi bilan belgilanadi, rentabellik esa korxonaning sof aktivlar qiymatining bir so‘miga oladigan foydasini ko‘rsatadi. Kengaytirish usulidan foydalanib multiplikativ ikki omilli modelni tuzib, sof aktivlar rentabelligini omilli tahlil qilamiz, ushbu tahlilni amalga oshirish uchun surat va mahrajni sotuvlardan olingan foyda miqdoriga (N) ko‘paytiramiz hamda sotuvlar rentabelligi va sof aktivlarning aylanuvchanligi koeffisiyentini sof aktivlar rentabelligiga ta’sirini aniqlaymiz:

$$\frac{Pc}{CA} = \frac{Pc}{N} \times \frac{N}{CA} \qquad (1)$$

bu yerda: $\frac{Pc}{CA}$ sof aktivlar rentabelligi, %;

$\frac{Pc}{N}$ sotuvlar rentabelligi, %;

$\frac{N}{CA}$ sof aktivlarning aylanuvchanligi, marta hisobida.

Ushbu formulani quyidagi ko‘rinishda berish mumkin: f **= x * u**

Mazkur modelning omilli tahlilini absolyut birliklar usuli yordamida jadval ma’lumotlaridan foydalangan holda amalga oshiramiz.

$$\Delta f(x) = \Delta r x y_0, \qquad (2)$$

$$\Delta f(y) = x_0 x \Delta y, \qquad (3)$$

Moliyaviy holatni tahlil qilish va baholash uchun biz tanlagan moliyaviy holatning baholash ko‘rsatkichlari tizimi bo‘yicha rentabellik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqishni taklif etamiz (1-jadval).

1-jadval

Sof aktivlar va o‘zlik kapitali rentabelligining omilli tahlili[1]

(mln. so‘m hisobida)

[1] “Прогресс” АЖ молиявий ҳисобот маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

№ t/r	Ko‘rsatkichlar	Yillar					2024 yilda 2023 yilga nisbatan o‘zgarish, (+/-)
		2020	2021	2022	2023	2024	
1	Sotuvlardan tushum	10453	11342	13987	17373	12042	-5331,0
2	Aktivlarning o‘rtacha qiymati	9345,	10987	11890	12649	17698	+5049,0
3	Sof aktivlarning o‘rtacha qiymati	9123,	10131	10453	11232	12378	+ 1146,0
4	O‘zlik kapitalining o‘rtacha qiymati	9324, 0	10242 ,0	10413 ,0	11232 ,0	12378 ,0	+ 1146,0
5	Sof foyda	1987,	2034,	4137,	5707,	2787,	-2920,0
6	Aktivlar aylanuvchanligi koeffisiyenti (1/2)	1,11	1,03	1,17	1,37	0,68	-0,69
7	Sof aktivlar aylanuvchanligi koeffisiyenti (l/Z)	1,14	1,12	1,34	1,55	0,97	-0,58
8	Sof aktivlarning korxona aktivlaridagi ulushi (Z/2)	0,97	0,92	0,88	0,89	0,69	-0,2
9	Moliyaviy manevrlash koeffisiyenti (2/4)	1,00	1,07	1,14	1,12	1,43	+0,31
10	Sotuvlar rentabelligi, % (5/1)	19	18	30	33	23	-10
1	Sof aktivlar rentabelligi, % (5/Z)	22	20	39	51	23	-28
1	O‘zlik kapitali rentabelligi, % (5/4)	21	20	40	51	23	-28

Hisob-kitoblar orqali quyidagi natijalarni olamiz:

Δf = -10 x 1,55 = -15 %

Δf = 23 x (- 0,58) = -13 %

Hisob-kitoblar yakunlari bo‘yicha omillar ta’sir balansi quyidagiga teng:

-15 + (-13) = - 28%. Sof aktivlar rentabelligining pasayishi (-8%) sotuvlar rentabelligining (-15%) va sof aktivlar aylanuvchanligining pasayishi (-13%) tufayli yuz berdi.

Atroflicha to‘liq hisob-kitoblar olib borish va yanada mukammal ko‘p omilli modelni tuzish uchun dastlabki modeldan foydalanamiz:

$$\frac{Pc}{CA} = \frac{Pc}{N} x \frac{N}{A} / \frac{CA}{A} \qquad (4)$$

bu yerda: $\frac{Pc}{CA}$ sof aktivlar rentabelligi, %;

$\frac{Pc}{N}$ sotuvlar rentabelligi, %;

$\frac{N}{A}$ aktivlarning aylanuvchanligi, marta hisobida;

$\frac{CA}{A}$ sof aktivlarning korxona umumiy aktivlari hajmidagi ulushi, koef.

Shunday qilib, biz umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning omillarga bog‘liqlik modeliga ega bo‘lamiz:

$$f = \frac{xy}{z}.$$

Ushbu model yuqorida sanab o‘tilgan omillarning sof aktivlar rentabelligiga ta’sirini baholashga imkon beradi. Hisob-kitoblarni zanjirli o‘rin almashtirish usulida amalga oshiramiz.

$\Delta f(x)$ = 23 • 1,37 / 0,89-33 • 1,37 / 0,89 = -15,0%

$\Delta f(y)$ = 23 • 0,68 / 0,89 – 23 • 1,37 / 0,89 = - 18,0 %

$\Delta f(z)$ = 23 • 0,68 / 0,69 – 23 • 0,68 / 0,89 = +5,0 %

Omillarning sof aktivlar rentabelligi o‘zgarishiga ta’siri jami Δf = -15,3 + (-17,8) + 5,1 = -28 foizni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichga: sotuvlar rentabelligining 15,0 foizga va aktivlar aylanuvchanligining 18,0 foizga pasayishi salbiy ta’sir ko‘rsatdi, sof aktivlarning korxona aktivlaridagi ulushining o‘zgarishi esa, sof aktivlar rentabelligini 5,0 foizga oshirdi.

Ichki audit moliyaviy holatni boshqarish tizimining bir qismi sifatida, kompleks ko‘rinishda bo‘lishi va korxona moliyaviy holati tahlili ichki auditning boshqa bo‘limlari bilan bog‘liqlikda bo‘lishi kerak. Moliyaviy holatning ichki auditini olib borish bo‘yicha berilayotgan uslubiy tavsiyalarning amalga joriy etilishi, fikrimizcha, qabul qilinayotgan joriy va strategik boshqaruv qarorlarining tezkorligi va asoslanganligi moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Fikrimizcha, ichki audit tizimida tahliliy amallardan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi kerak: balans ma’lumotlari bo‘yicha moliyaviy holat tahlili: aktivlar tarkibi, ularni shakllantirish manbalari va tuzilmasi dinamikasini tahlil qilish; kapital harakati haqidagi hisobot ma’lumotlari bo‘yicha o‘zlik kapitali harakatining tahlili; balans ma’lumotlari bo‘yicha likvidlilik koeffisiyentlarini hisoblab chiqish va baholash; to‘lov qobiliyatini ichki auditdan o‘tkazishda tahliliy amallarni qo‘llash; qarz mablag‘lari harakatining tahlili va h.k. Shu maqsadda tadqiqot jarayonida ichki auditda tahliliy amallardan foydalanish bo‘yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ichki auditda balansning aktivlar tarkibi va tuzilmasi dinamikasini tahlil qilish sub’yektning jami mol-mulki, uning alohida turlarining mutlaq va nisbiy o‘zgarishini aniqlash imkonini beradi.

Aktivlar moliyaviy hisobotning muhim elementlaridan biri hisoblanib, ularni audit qilishda aktivlarning haqiqatda mavjudligi, tarkibi, tuzilmasi va ularda sodir bo‘lgan o‘zgarishlar o‘rganiladi.

Ichki audit o‘tkazishda aktivlar tarkibi va ularning joylashishini balans ma’lumotlari bo‘yicha tahlil qilish uchun bizningcha, quyidagicha tahliliy jadval tuzilishi maqsadga muvofiq, (2-jadval).

2-jadval

2022-2024 yillarda “Progress” AJ aktivlari umumiy hajmi va tarkibi tuzilishining o‘zgarishi.

Ko‘rsatkichlar	2022 yil		2023 yil		2024 yil		O‘zgarishlar (+, -) 2024 yilda 2022 yilga nisbatan	
	Summa, mln. So‘m	Salmog‘i, %	Summa, mln. So‘m	Salmog‘i, %	Summa mln. So‘m	Salmog‘i, %	mln. so‘m (5-us. - 1-us.)	% (5-us / 1-us) marta
A	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**	**8**
Aktivlar qiymati, jami, jumladan:	9 345,0	100	12 649,0	100	17 698,0	100	+ 8 353,0	1,9
1.1. Uzoq muddatli aktivlar, ulardan:	4 261,3	45,6	1 507,8	11,92	1 906,1	10,77	- 2 355,2	0,45
a) asosiy vositalar	4 149,2	44,4	1 443,3	11,41	1 863,6	10,53	- 2 285,6	0,45
b)Uzoq muddatli investisiyalar	112,1	1,2	64,5	0,51	42,5	0,24	- 69,6	0,38
1.2. Joriy aktivlar ulardan:	5 083,7	54,4	11 140,0	88,07	15 791,9	89,23	+ 10 708,2	3,1
a) ishlab chiqarish zaxiralari	3 738,0	40,0	8 166,2	64,56	11 930,2	67,41	+ 8 192,2	3,2

2-jadvaldan ko‘rinib turganidek, aktivlarning haqiqiy qiymati hisobot davrida 8 353,0 mln. so‘mga yoki 1,9 baravarga oshgan. Bu esa korxonaning barqaror rivojlanib borayotganidan dalolat beradi. Aktivlarni tahlil qilishda ular qanday joylashgani, hisobot davrida nimaga ko‘proq e’tibor berilgani, korxonani ishlab chiqarish salohiyati, asosiy vositalarining holati, mol-mulkning harakatchanligi darajasini aniqlab olish kerak. Buning uchun, dastlab korxona ishlab chiqarish salohiyatini aniqlash zarur. Ushbu masalada iqtisodiy adabiyotda turli qarashlar mavjud. M.Q. Pardayev, B.I. Isroilovlar ta’kidlashlaricha: “...uning qiymati asosiy vositalar, aylanma mablag‘lar, nomoddiy aktivlar, mehnat potensialini o‘z ichiga oladi” [4, B.76].

3-jadval

2022 – 2024 yillarda “Progress” AJ joriy aktivlarining tarkibiy tuzilmasi o‘zgarishi

Ko‘rsatkichlar	2022 yil		2023 yil		2024 yil		O‘zgarishlar (+, -) 2024 yilda 2022 yilga nisbatan	
	summa, mln. so‘m	salmog‘i, %	summa, mln. so‘m	salmog‘i, %	summa, mln. so‘m	salmog‘i, %	mln. so‘m (5-us.-1-us.)	% (5-us / 1-us.), marta
A	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*	*8*
Joriy aktivlar, jami, shu jumladan:	5 083,7	100	11 140,0	100	15 791,9	100	+ 10 708,2	3,1
1.1. Ishlab chiqarish zaxiralari	3738,0	73,5	8 166,2	73,3	11 930,2	75,55	+ 8 192,2	3,2
1.2. Debitorlik qarzdorligi	358,9	7,06	2 349,4	21,09	3 412,6	21,61	+ 3 053,7	9,5
1.3. Pul mablag‘lari va qisqa muddatli investisiyalar	986,8	19,4	624,4	5,61	449,1	2,84	- 537,7	0,46

Ikkinchi uslubiyot bo‘yicha korxona ishlab chiqarish salohiyatini belgilaydigan aktivlar tarkibiga, yuqorida keltirilgan uslubiyotga ko‘ra, “...tugallanmagan kapital qo‘yilmalar hamda o‘rnatiladigan jihozlar qiymati qo‘shiladi” [5, B.235]. Ushbu uslubiyot korxonadagi rivojlanish jarayonini va uning moddiy-texnika bazasi holatini aniqroq aks ettirish imkonini beradi. A.D.Sheremet esa: «Xo‘jalik amaliyoti ma’lumotlari asosida ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mol-mulk koeffisiyenti uchun quyidagicha cheklov normal hisoblanadi: $K_p > 0,5$» [6]- deya ta’kidlaydi.

Fikrimizcha, ushbu ko‘rsatkich miqdori kritik chegaradan pastga tushib ketsa-da, korxona faoliyatining hisobot davridagi moliyaviy natijalari bunday aktivlarni o‘zlik mablag‘lari hisobiga to‘ldirish imkonini bermasa, ishlab chiqarishga mo‘ljallangan mol-mulkni ko‘paytirish uchun uzoq muddatli qarz mablag‘larini jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Ichki audit jarayonida quyidagi tahliliy jadvalni tuzish, joriy aktivlar tarkibi va tuzilmasini tahlil qilish zarur, (3-jadval).

Keltirilgan ma’lumotlar shundan dalolat beradiki, korxona aktivlari qulay dinamikaga ega. Ularni alohida elementlar darajasida o‘rganish esa quyidagi xulosalarga olib keladi. Eng harakatchan aktivlar – pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy investisiyalar o‘tgan davrda 537,7 mln. so‘mga yoki 0,46 foizga kamaygan.

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha joriy aktivlarning qiymati taqqoslangan davrga nisbatan 3,1 martaga oshgan. Natijada aylanma mablag‘larning harakatchanlik koeffisiyenti 0,03 ni tashkil qilgan.

Bu koeffisiyent aylanma mablag‘larning harakatchan qismi (pul mablag‘lari)ning joriy aktivlar qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi va joriy majburiyatlarni qoplashga yo‘naltiriladigan mablag‘lar umumiy summasida to‘lov qobiliyati ulushini ko‘rsatadi.

Ichki auditorning navbatdagi bajaradigan ishi – balans aktivlarining hosil bo‘lish manbalarini tahlil qilishdir. Amaliyotning ko‘rsatishicha, korxona mol-mulkining xarid qilinishi, kelib tushishi va

yaratilishi o‘zlik va qarz kapitali hisobiga yuz beradi. O‘zlik va qarz kapitalining nisbati esa, korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilaydi.

Xo‘jalik sub’yektlari to‘lov qobiliyati uning moliyaviy barqarorligini ko‘rsatuvchi muhim mezonlardan biri hisoblangani uchun bozor iqtisodiyoti sharoitida unga jiddiy e’tibor beriladi.

Korxonaning to‘lov qobiliyati odatda to‘lov qobiliyati koeffisiyenti orqali ifodalanadi, bu koeffisiyent mavjud naqd pullar summasining muayyan davr uchun muddatli to‘lovlar summasi nisbatiga teng. Agar to‘lov qobiliyati koeffisiyenti 1 ga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, xo‘jalik yurituvchi sub’yekt to‘lovga qobiliyatli hisoblanadi. Agar to‘lov qobiliyati koeffisiyenti 1 dan kam bo‘lsa, audit jarayonida to‘lov mablag‘larining yetishmasligi sabablarini aniqlash talab etiladi.

Audit jarayonida xo‘jalik yurituvchi sub’yektning to‘lov qobiliyatini aniqlash uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanishni taklif etamiz: 1) mutlaq likvidlilik koeffisiyenti; 2) oraliq qoplash koeffisiyenti; 3) umumiy qoplash koeffisiyenti.

Umumiy qoplash koeffisiyenti likvidli mablag‘larning shoshilinch va qisqa muddatli majburiyatlarni qanchalik qoplashini aniqlash imkonini beradi va shu tariqa balans tuzilmasining barqarorligini, korxonaning qisqa muddatli qarzlarini tez qoplay olish imkoniyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda korxonaning joriy likvidliligini baholashda ushbu ko‘rsatkichga alohida e’tibor beriladi. Uning keng qo‘llanishining sabablari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, bu koeffisiyent joriy aktivlarning joriy passivlarni qoplash darajasini aks ettiradi. Bu kattalik qanchalik yuqori bo‘lsa, qisqa muddatli majburiyatlarni to‘lashga ishonch ham shunchalik yuqori;

- ikkinchidan, joriy aktivlarning joriy passivlardan yuqori bo‘lishi joriy aktivlarni (pul mablag‘laridan tashqari) sotishda yoki tugatishda zarar ko‘rilishining oldini oladi. Bu teskari ta’sir qanchalik kuchli bo‘lsa, kreditorlar uchun shunchalik yaxshi bo‘ladi.

Korxona o‘z likvidli vositalari hajmini ularga bo‘lgan maqbul ehtiyoj chegarasida tartibga solib turishi kerak, bunday ehtiyoj har bir alohida korxona uchun bizningcha, quyidagi omillar bilan belgilanadi: korxona kattaligi va uning faoliyat hajmlari; ishlab chiqarish tarmog‘i; ishlab chiqarish sikli davomiyligi; materiallar zahirasini tiklash uchun zarur bo‘lgan vaqt; korxonaning mavsumiy ishlari; umumiy iqtisodiy kon’yunktura.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, korxona moliyaviy barqarorligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblangan to‘lov qobiliyati balans likvidliliga bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, korxonaning to‘lov qobiliyatiga quyidagi omillar ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi: mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy vaziyat, moliya bozorining ahvoli, garov va bank qonunchiligining takomillashuvi, xususiy kapitallar bilan ta’minlanganlik, debitor korxonalarning moliyaviy holati.

Xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar to‘lov qobiliyatini audit qilishda yuqoridagi omillarni birgalikda va o‘zaro bog‘liqlikda ko‘rib chiqish audit qilinayotgan korxonaning moliyaviy holatini ob’yektiv baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni «O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida.
2. Gilyarovskaya L.T., Vexareva A.A. Analiz finansovoy ustoychivosti kommercheskogo predpriyatiya. - SPb.: Piter. - 2003. – C. 50.
3. Ilxamov Sh.I. Audit nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.:Iqtisodiyot, 2021.

4. Pardayev M.Q.,Isroilov B.I. Iqtisodiy tahlil.O‘quv qo‘llanma - T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashriyot uyi, 2011.- B. 76.
5. Kovalev V.V. Finansovыy analiz: metodы i proseduru. – M.: FiS, 2013. – S.235.
6. Sheremet A.D. Teoriya ekonomicheskogo analiza. – M.: INFRA-M, 2011. – S.311.